

**THE ESSENCE AND ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF INDEPENDENT EDUCATION AND TRAINING OF STUDENTS OF MILITARY FACULTIES (FUTURE MILITARY LEADERS) OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

Olimjonov Otabek Urinboy Oglu

A Student of The Military Education Faculty of  
The Tashkent State Pedagogical University Named After Nizami

**ABSTRACT**

Social processes, science, technology, and the human mind are constantly evolving. Therefore, no matter what profession a person has, he or she must constantly work on himself or herself, both as a professional and as a person, so that he or she does not become the person of yesterday. The effectiveness of education and upbringing of students of military faculties of higher education institutions, the improvement of their skills as a future military leader depends on the self-improvement, self-development and self-improvement of each student. As a result of self-improvement, a person expands the scope of his personal knowledge, improves his skills and abilities, and strives to eliminate shortcomings in his behavior and character.

The independent development of students takes place in two interrelated processes: independent upbringing and independent learning. Both of these processes have their own characteristics, content, forms and methods, and always complement each other.

**MUSTAQIL TARBIYANING MAZMUN-MOHIYATI**

Mustaqil tarbiya insonning o'zida ijobjiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish hamda salbiy sifatlarni yo'qotish yo'lidagi ongli, faol, maqsadli faoliyatidir. Mustaqil tarbiyaning asosini insonning quyidagi qobiliyatlari tashkil etadi:

- ♦ o'zi haqida qayg'ura olishi;
- ♦ o'z ishi va kelajagi haqida o'ylashi;
- ♦ o'ziga chetdan nazar sola olishi;
- ♦ o'z qobiliyati, kuchi va imkoniyatlariga to'g'ri va haqqoniy baho bera olishi;
- ♦ o'z kamchiliklarini va nojo'ya hatti-harakatlarini ko'rishi, xulosa chiqarishi va bartaraf eta olishi;
- ♦ o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la olishi;
- ♦ o'z harakatlari va turmush tarzi uchun mas'uliyat his etishi;
- ♦ oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida qat'iyat bilan harakat qilishi.

Mustaqil tarbiyani amalga oshirishga yordam beruvchi ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlar, albatta, o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu insonning tarbiyalanganlik va bilimdonlik darajasi, axloqiy sifatlarining shakllanganligi, oldiga qo'ygan maqsadlari, hayotiy ideallari, turmushda va xizmat jarayonida atrofidagilarning unga bo'lgan munosabati, jamoadagi axloqiy-ruhiy muhit va juda ko'plab shunga o'xshash omillarga bog'liq.

Mustaqil tarbiya murakkab aqliy, axloqiy, ma'naviy va irodaviy jarayondir. Bu jarayon davomida shaxsning o'ziga va atrofidagilariga nisbatan ongli, maqsadli va tanqidiy munosabatda bo'lishi talab qilinadi. Shaxsning o'zgarishi uning o'ziga bog'liq bo'lмаган holda faqat tashqi ta'sirlar, ya'ni tarbiya, atrof muhit, boshqa odamlar ta'sirida ongsiz, stixiyali ravishda bo'ladigan bo'lsa, bunda o'z-o'ziga tarbiya berish haqida gap bo'lishi ham mumkin

emas. Mustaqil tarbiya uchun shaxsning ma'lum darajada tarbiyalanganligi, o'zini anglashga, o'z harakatlarini tahlil qilishga va o'ziga baho berishga, o'z xulqi va harakatlarini boshqalarniki bilan solishtirishga va taqqoslashga qodirligi talab qilinadi.

## **ТАЛАБАЛАРНинг MUSTAQIL TARBIYASI TURLI YO'NALISHLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILISHI MUMKIN BO'LIB, UNING MAZMUNI QUYIDAGILARDAN IBORAT BOLADI**

- ♦ Harbiy-kasbiy yo'naliш: yuqori malakali harbiy mutaxassis va o'z kasbining ustasi bo'lib etishishi uchun bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini tinimsiz oshirib borish va buning asosida бўлажак harbiy раҳбарга xos kasbiy sifatlarni shakllanrish va takomillashtirish;
- ♦ Ma'naviy-axloqiy yo'naliш: xalqimizning tarixini, urf-odatlari va an'analarini, boy ma'naviy va madaniy merosini o'r ganishi asosida o'zining ma'naviy dunyosini kengaytib borish, axloqiy bilimlarini oshirish hamda xulqini va boshqa талабalar bilan munosabatini axloq-odob qoidalari va umumharbiy nizomlar talablari asosida qurish;
- ♦ Estetik yo'naliш: turmushning va hayotning go'zalligini ko'ra olishga o'r ganish, san'atning turli yo'naliшlari bilan tanishib borish, o'zining ichki va tashqi dunyosining go'zal bo'lishiga intilish hamda bu go'zallikni atrofidagilarining sezishiga erishishga harakat qilish;
- ♦ Jismoniy yo'naliш: o'zining kuch-quvvatiga, jismoniy imkoniyatlariga haqqoniy baho berish orqali o'z ustida tinimsiz ishslash, mashq qilish;
- ♦ Ruhiy yo'naliш: o'zini ruhan chiniqtirish, kayfiyatini, his-hayajonlarini boshqarishga o'r ganish;
- ♦ Irodaviy yo'naliш: aqliy, ruhiy va jismoniy mashqlar vositasida o'z irodasini chiniqtirish, turli sharoitlarda o'zini tutishga, harakat qilishga o'r ganish va boshqalar.

## **MUSTAQIL TARBIYANING METODLARI QUYIDAGILARDAN IBORAT**

- ♦ o'z ustiga majburiyat olish;
- ♦ o'z hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va tartibga solish;
- ♦ o'z-o'zini tushunish, anglash;
- ♦ o'z xulqi va harakatlarini tahlil qilish;
- ♦ o'z-o'ziga hisob berib borish;
- ♦ o'z-o'zini ishontirish;
- ♦ mashq qilish;
- ♦ o'z-o'zini tanqid qilish;
- ♦ o'z-o'zini jazolash va boshqalar.

Mustaqil tarbiya jarayonining natijalarini ko'rish, o'zini nazorat qilish maqsadida harbiy xizmatchi o'z-o'ziga hisob berib turishi, qilgan ishlariga ma'lum bir vaqt oralig'ida, masalan, har kuni, har haftada, har oyda, har yili yakun yasab turishi yaxshi natijalar beradi. Bunda quyidagicha baho berilishi mumkin:

- ♦ o'tgan davrda qanday ishlar bajarildi, bu ishlarning mazmuni, miqdori va sifati, rejaga muvofiqligi;
- ♦ qanday yutuqlarni alohida ta'kidlash mumkin;
- ♦ qanday kamchiliklarga yo'l qo'yildi;
- ♦ o'z harakterining qirralarini, irodasini va qobiliyatini qayerda va qanday namoyon qila oldi;

- ◆ o‘z shaxsida qanday ijobji o‘zgarishlarga erishdi;
- ◆ o‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘yicha keyingi davrga o‘z oldiga qanday vazifalar qo‘yishi lozim va hokazo.

Talabalarning mustaqil tarbiyasi jarayoni o‘z holiga tashlab qo‘yilmasligi, boshqaruvsiz qolmasligi lozim. Bu jarayon boshliqlar, педагоглар, tarbiyachi-тютоллар томонидан доимо boshqarib turilishi lozim.

Mustaqil tarbiya jarayoniga rahbarlik qilish va uni boshqarishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- ◆ talabalarning ongliligini, ma’naviy-axloqiy sifatlarini, fazilatlarini oshirib borish;
- ◆ harbiy ta’limni harbiy nizomlar talablari asosida tashkil qilish, doimiy ravishda tartib va intizomga rioya qilishga o‘rgatish;
- ◆ harbiy rahbarni va tarbiyachilarining shaxsiy ibratliligi, doimiy har sohada o‘rnak bo‘lishiga erishish;
- ◆ talabalarga mustaqil tarbiyaning mazmuni, maqsadlarini, shakllarini va metodlarini tushuntirib borish;
- ◆ zarur sifatlarini o‘zida rivojlantirish uchun sharoit yaratib berish;
- ◆ mustaqil tarbiya bo‘yicha shaxsiy ish rejalarini tuzishga ko‘maklashish va boshqalar.

### **MUSTAQIL TA’LIMNING MAZMUN-MOHIYATI**

Mustaqil tarbiya bilan bir qatorda mustaqil ta’lim ham shaxsning rivojiga, kamolotiga yordam beruvchi jarayondir. Mustaqil ta’lim shaxsning o‘z bilimlari saviyasini oshirish va chuqurlashtirish, mavjud ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va yangilarini egallah, tafakkur darajasini oshirish, dunyoqarashi doirasini kengaytirish maqsadidagi faol, maqsadli faoliyatidir. Mustaqil bilim olish faoliyati shaxsning ma’naviy, axloqiy sifatlarini va bo’lajak kasbiy mahoratini rivojlantirishga yordam beradi, aqliy salohiyati oshadi, kasbiy mahorati va madaniy saviyasi o‘sadi, dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati kengayadi.

### **TALABANING MUSTAQIL TA’LIMI QUYIDAGI YO‘NALISHLARDA OLIB BORILISHI MUMKIN**

- ◆ harbiy-kasbiy yo‘nalish: bolajak harbiy rahbarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilimlari doirasini doimo kengaytirib borishi, bu sohadagi ilmiy, harbiy-texnik yangiliklar, kashfiyotlardan xabardor bo‘lishi, boshqa davlatlar armiyalarida ro‘y berayotgan islohotlar, o‘zgarishlar, voqealar, jangovar harakatlar olib borish taktikasi bilan tanishib turishi va hokazo;
- ◆ ilmiy yo‘nalish: bo’lajak harbiy rahbarning o‘z intellektual salohiyatini oshirish, ilmiy va kasbiy bilimlari hamda dunyoqarashi doirasini kengaytirish, tafakkuri darajasini rivojlantirish maqsadida kasbi, mutaxassisligiga oid hamda boshqa sohalarga doir adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari materiallari bilan tanishib borishi;
- ◆ siyosiy yo‘nalish: bo’lajak harbiy rahbarning o‘z siyosiy bilimlarini oshirib borishi, siyosiy ongini o‘stirishi, mamlakatimizda va jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealarga qiziqish bildirishi, tushunish, tahlil qilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish malakalarini rivojlantirishi;

- ♦ huquqiy yo‘nalish: bo‘lajak harbiy rahbarning o‘zining va bo‘ysunuvchilarining harbiy xizmat, mehnat, oila, turmush va boshqa sohalar bilan bog‘liq huquqlari, burchlari va majburiyatlari yuzasidan bilimlari doirasini kengaytirish, huquqiy savodxonligi darajasini oshirishi;
- ♦ ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalish: bo‘lajak harbiy rahbarning jamiyatimiz ijtimoiy hayoti bilan qiziqishi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmuni va mohiyatini chuqur anglab etish maqsadida o‘zining iqtisodiy bilimlarini oshirib borishi;
- ♦ umummadaniy yo‘nalish: bo‘lajak harbiy rahbarning o‘zining madaniy saviyasini oshirib borishi; adabiyot va san‘atning turli yo‘nalishlari haqidagi tushunchalarini kengaytirishi; axloq normalari, etiket talablari hamda turli sharoitlarda o‘zini tutish qoidalari to‘g‘risidagi bilimlarini tinimsiz rivojlantirib turishi va hokazo.

Mustaqil ta’lim har bir ta labanining doimiy ishiga, odatiga aylanishi lozim. Bu jarayon, ayniqsa, bo‘lajak harbiy rahbarlar, yosh ofitserlar uchun juda muhimdir.

Mustaqil ta’lim jarayonini qanday tashkil etish kerak, degan savolga aniq javob berish, biron ko‘rsatma berish qiyin. Chunki bu jarayon har bir shaxsning qiziqishi, imkoniyati, xohishi, ehtiyoji va irodasiga bog‘liq. Biroq, shunday bo‘lsada, ba‘zi bir ko‘rsatmalarni berish mumkin:

1. Hozirgi zamon axborot oqimidan to‘g‘ri va samarali foydalana olish (ommaviy axborot vositalari, “Internet” tarmog‘i, adabiyotlar). Hozirgi «axborot» asrida turli sohadagi ma‘lumotlar juda tez tarqalmoqda. Axborot olish va almashish bo‘yicha chegara yo‘q. Shunday ekan, kerakli ma‘lumotlarni qayerdan qidirish va qaysi manbadan olish, olingan ma‘lumotlarni to‘g‘ri tushunish va talqin qilish, ulardan xizmat jarayonida va hayotda to‘g‘ri foydalana bilishga o‘rganish muhim.

2. Mustaqil ta’lim dasturlarini tuzish (ma‘lum bir soha, yo‘nalish bo‘yicha). Har bir inson o‘zining faoliyat sohasi, qiziqishlari, ehtiyojlariga ko‘ra o‘z bilimlarini oshirib borar ekan, bu jarayonning ma‘lum bir reja asosida tuzilgan dasturlarga binoan amalga oshirilgani yaxshi natijalarga olib keladi. Chunki reja asosida amalga oshirilgan ishni tahlil qilish, o‘z-o‘ziga hisob berish va qanchalik darajada bajarilganligini baholash imkoniyati tug‘iladi.

3. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va tajribali ofitserlar, o‘qituvchilar, instruktorlar bilimidan foydalanish. Bunda bo‘lajak harbiy rahbar o‘zining bilimlari zahirasini kengaytirishi, fikr va tajriba almashishi, o‘z ishidagi yutuqlari, xato va kamchiliklarini ko‘ra olishi hamda tegishli xulosalar chiqarishi uchun imkoniyat yaratiladi. Chunki inson faol faoliyat va o‘zgalar bilan muloqot jarayonidagina o‘zi haqida xulosa chiqara olishi mumkin.

4. Vaqtdan unumli foydalanish. Harbiy xizmatchining kun tartibiga qat‘iy amal qilishi, xizmat vazifalari va shaxsiy ishlarini, shuningdek mustaqil ta’lim olish bo‘yicha bajarish ko‘zda tutilgan tadbirlarni reja asosida amalga oshirishi natijalarni tahlil qilib borish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘ziga hisob berib turish va yangi rejalar tuzish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

5. Doimiy ravishda mutolaa qilish. Harbiy xizmatchining o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishi va unda muvaffaqiyat qozonishi uchun mutaxassisligi bo‘yicha oz miqdordagi adabiyot bilan cheklanib qolmasdan, turli-tuman nashrlar (psixologik-pedagogik, ilmiy, metodik, maxsus, o‘quv, badiiy adabiyotlar, lug‘atlar, entsiklopediyalar, gazeta va jurnallarda e’lon qilinadigan maqolalar, “Internet” tarmog‘idagi materiallar) bilan tanishib borishi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘z navbatida uning bilimlari doirasi va dunyoqarashining

kengayishiga, doimo turli sohalardan yangi ma'lumotlar olishiga, bo'ysunuvchilari ko'z o'ngida bilimdon, dono, hozirjavob mutaxassis sifatida obro'-e'tibor qozonishiga yordam beradi.

Yuqoridaagi fikrlardan kelib chiqqan holda, mustaqil tarbiyaning quyidagi metodlarini ko'rsatish mumkin:

- ♦ turli sohaga va yo'nalishga oid adabiyotlar bilan muttasil tanishib borish;
- ♦ ommaviy axborot vositalari materiallari bilan tanishish;
- ♦ teleko'rsatuvarlar tomosha qilish (xususan, ilmiy-ommabop, intellektual, kasbiy va madaniy sohaga oid ko'rsatuvarlar va hokazo);
- ♦ «Internet» tarmog'i materiallarini o'rganish;
- ♦ teatr, muzey, ko'rgazma va shu kabi muassasalarga tashrif buyurish;
- ♦ o'z bilimlari doirasini, dunyoqarashini kengaytirish bo'yicha mustaqil o'qish, mashq qilish;
- ♦ o'z ustiga majburiyat olish;
- ♦ o'z-o'zini baholash va hokazo.

Albatta, ko'rsatib o'tilgan metodlar mustaqil ta'lim metodlarining to'la ro'yxatini aks ettirmaydi. Inson o'zining intellektual va kasbiy saviyasini oshirishni maqsad qilar ekan, har bir imkoniyatdan keng foydalanishga intilishi lozim. Faqat shundagina odam doimo rivojlanishda bo'ladi. Aks holda u kechagi kun odamiga aylanib qolishi mumkin.